

ISLOM HUQUQIDA OZODALIKNING MAZMUN-MOHİYATI VA ASOSIY VAZIFALARI

Mansurov Umar Foruq

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Tel: +998977501254
Email:umarforuqmansurov1*

THE CONTENT AND MAIN FUNCTIONS OF FREEDOM IN ISLAMIC LAW

Mansurov Umar Foruq
*International Islamic Academy of Uzbekistan
4th stage student of Islamic studies
Phone: +998977501254
Email: umarforuqmansurov1*

Islomda musulmonlarning pokiza, toza bo'lishlariga, hamisha har joyda pok yurish-turishlariga katta e'tibor bilan qaraladi. Chunki Alloh taolo Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ga shunday buyurgan. Sababi Islom dini pokizalik, go'zallik ustiga qurilgan. Poklik – mo'minnig ko'zgusi. *“Poklik – iymondandir”*, - degan Rosululloh (s.a.v).

Islom musulmonlarning toza, pok bo'lishlarini ta'minlashda eng mayda-chuyda “ikir-chikir”larigacha aralashgan. Payg'ambarimiz (s.a.v) sunnatlari orqali bu sohadagi yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarni targ'ib qiladi.

ASOSIY QISM

Allohnin mo'min zimmasidagi haqqi yetti kunda barcha a'zosini to'la yuvib, g'usl qilishdir. Islom dinida er-xotin munosabatidan keyin, bulg'anib qolganda ham g'usl qilish vojib amal hisoblanadi. Mo'ylovlarni qisqartirish, tirnoq olish, qo'ltiq va kindik osti mo'ylarini tozalash, xatna qildirish, misvok tutish kabi ishlar musulmonlarga shart qilib qo'yilgan.

Og'iz-tishlarni toza tutishga alohida e'tibor berilgan. Arok daraxtining shoxchalaridan tayyorlangan maxsus tish tozalash vositasi sifatida misvokdan foydalanish sunnatdir.

Payg‘ambar (s.a.v): “Tishlaringizni misvok bilan tozalab yuringlar va tozalikka odat qilinglar”, “Agar ummatimga mashaqqat bo‘lmaganida edi har namozdan oldin misvok qilishga (ya’ni tish tozalashga) buyurar edim”, deb ta’lim berganlar¹.

Rosululloh (s.a.v)ning bu ko‘rsatmalari bejizga bo‘lmagan. Misvok tekshirib ko‘rilganda, unda ko‘plab foydali va xushbo‘y moddalar borligi aniqlangan. Vaholanki, hozirgi zamonaviy tish cho‘tkalari G‘arbda 1806-yildan urfga kira boshlagan².

Musulmonlar kuniga bir necha marta yuvinib tozalanadilar, haftasiga albatta hammomda yoki uylarida g‘usl qiladilar. Kiyimlarini, hovli-joylarini, ibodat o‘rinlarini toza tutadilar. Chunki bu - islomning talabi. Islom esa tozalik dini, pokizalik esa dinning yarmidir.

Musulmonlar tozalik haqida ana shunday bosh qotirib yurishganida, Yevropada kishilar yuvinmasdan, yiliga bir marta paxtani ho‘llab artinishgan, cho‘qintirish paytidagi maxsus “vaftiz” suvining ta’siri ketib qolmasin, deb suvdan seskanishgan. Hattoki mashhur Versal saroyida umuman hojatxona bo‘lmagan. O‘rta asrlar Fransiya saroy va teatrlarning birortasida ham hojatxona bo‘lmagan bir paytda, Istanbulda 1400 ga yaqin shunday joy bo‘lgan.

XVI asrda Xollandiya³ elchisi Baron de Busbek Usmoniylar mamlakatiga safaridan so‘ng shunday degan ekan: “E, bu odamlarning kasal bo‘lishi aniq baliqlar kabi suvda “shalop shulup” qilib yuvinishadi, shunchalar ham ko‘p yuvinish mumkinmi?”⁴.

Usmonli saltanati shaharlarida sardobalarga o‘xshash, har biri san’at darajasiga ko‘tarilgan yuzlab chashmalar⁵ bo‘lgan. Ibrohim Rafiqning “Tarix shuuri” kitobida yozilishicha, Valiy laqabli Boyazid ikkinchi hukmronligi davrida Istanbulga Moskva Knyazining Mixail Plachnet ismli elchisi tashrif buyurgan. Undan yoqimsiz hid anqib turgani sababli uni yuvintirish uchun hammomga olib borishgan. Umrida hammomni ko‘rmagan elchi yuvinishga, ich kiyimlarini almashtirishga ko‘nikolmay, hammomdan qochib chiqqan va tezda Istanbulni tark etgan⁶.

1600 yillarida Ispaniya inkvizitsiya⁷si musulmonlarni ommaviy qirg‘in qilgani tarixdan ma’lum. G‘arb tadqiqotchilarning kundaliklarida yozilishicha, johil hukmdorlar musulmon ispanlarni tozaliga, qo‘ltiq osti mo‘ylarining olinganiga qarab, nasroniylardan ajratib qatl qilgan ekan⁸.

Payg‘ambar (s.a.v) kechqurun yotishdan oldin suv va taom solingan idishlar ustini yopishni, siniq, darz ketgan idishlarni ishlatmaslikni buyurganlar. O‘sha joylarda turli

¹ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – Toshkent.: Hilol nashr, 2009. – 72 b.

² G‘. G‘ofurov. Sharq javohirlari. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2000. – 84 b

³ Hozirgi Niderlandiya davlati, ya’ni Gollandiya.

⁴ Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent.: Movarounnahr, 2009. – 299 b.

⁵ Zamonaviy tahoratxonalar.

⁶ Ahmad Bobomurodov. Komil insonlar yo‘lidan. – Toshkent.: Movarounnahr, 2003. – 73 b.

⁷ Katolik cherkovi erkin fikrlilarga, papa hokimiyati dushmanlariga qarshi kurashish uchun ta’sis etilgan maxsus muassasa. XIII asrda tuzilgan.

⁸ N.Komilov. Tasavvuf. G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar / to‘plam /. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1994. – 22 b.

zararli narsalar (mikroblar) bo'lishini hali zarrabin⁹ kashf etilmasdan o'n to'rt asr avval aytganlar. U zot ovqat oldidan va keyin qo'l yuvish, ovqatga puflamaslik, xotirjam o'tirib ovqatlanish, taomni issig'icha iste'mol qilmaslikka ham targ'ib qilganlarki, bularning hammasida hikmat bor.

Vaholanki, g'arbda ovqatlanish sohasidagi madaniyat juda orqada edi. Birgina misol keltirib o'tish kifoya: o'rta asrlarda Brandenburg shahzodasi aslzodalarni o'z saroyidagi ziyofatga chorlar ekan, taklifnomaga: *"Go'sht yegandan keyin suyakni orqaga otish yo'q, yog'li og'izni yeng bilan artish yo'q, tovoqni ko'tarib, ostiga tupurish yo'q"*, deb izoh yozishga majbur bo'lgan ekan.

Poklikning fazilati. Poklik – *"tahorat"* so'zi lug'atda *"tozalik va ozodalik"* ma'nosini anglatadi. Shariatda esa, u tahorat, g'usl, tayammum kabi namoz o'qish uchun poklanishga aytiladi¹⁰.

Islomda poklik asosiy omillardan hisoblanadi. Islom poklik va poklanish ishlariga o'ta jiddiy qaraydi. Dunyoda islomdan boshqa hech bir din, tuzum yoki falsafa poklikni va ozodalikni iymon darajasiga ko'tarmagan.

Islomda ibodatlarning qabul bo'lishi poklik asosida ado etilishiga bog'liq. Alloh nazdida poklik yo'lida qilingan har bir ish, yuqori baholanadi va uni qilgan kishiga ulkan ajr-savoblar, oliy martabalar beriladi.

Alloh taoloning kitobida: *"Unda poklanishni yaxshi ko'radigan erlar bor. Alloh poklanuvchilarni yaxshi ko'radi"*, - deyilgan.¹¹

Bu oyati karimaning o'zi barcha insonlar poklik uchun intilib, butun dunyo poklanish sari yuz tutishi uchun yetarli! Musulmonlar Qur'onga amal qilib yashasalar ana shundoq bo'ladi!

Payg'ambarimiz (s.a.v.) o'zlarining muborak hadislaridan birida: *"Poklik iymonning yarmidir"*, deganlar¹².

Islomda iymonning qadr-qimmatini qanchalik yuqori ekanini yaxshi bilamiz. Poklik iymonning yarmiga tenglashtirilgandan ham Islom dini ozodalik, poklik va tozalikka qanchalar e'tibor berganini bilib olsak bo'laveradi.

Payg'ambar (s.a.v.): *"Albatta, ummatim qiyomat kuni tahoratning asaridan peshonalari oppoq va oyoq-qo'llaridan nur taralib turgan hollarida chaqirilurlar. Bas, sizdan kim o'z peshonasidagi qashqasini uzaytirishga qodir bo'lsa, shuni qilsin"*, - dedilar¹³.

Payg'ambar (s.a.v.): *"Vaqtiki, musulmon yoki mo'min banda tahorat qilsa, bas, u yuzini yuvganida o'sha suv yoki o'sha suvning oxirgi qatrasi ila uning ikki ko'zining nazari orqali qilgan xatolari yuzidan to'kiladi. Vaqtiki, ikki qo'lini yuvsan, o'sha suv yoki o'sha"*

⁹ Mikroskop

¹⁰ Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichinda. – Toshkent.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. –212

¹¹ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021. – 124 b.

¹² Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – Toshkent.: Hilol nashr, 2009. – 42 b.

¹³ Rizouddin ibn Faxriddin. Javome'ul kalim. – Toshkent.: Movarounnahr, 2004. –38 b.

suvning oxirgi qatrasi ila uning ikki qo'li bilan qilgan xatolari to'kiladi. Vaqtiki, ikki oyog'ini yuvsa, o'sha suv yoki o'sha suvning oxirgi qatrasi ila ikki oyog'i bilan yurib qilgan xatolari to'kiladi. Shundoq qilib, u gunohlardan pok bulib chiqadi", - dedilar¹⁴.

Tashqi a'zolari pok tutish. Tahorat, eng avvalo, Alloh taolo tomonidan amr qilingan ibodatdir. Tahorat poklik demakdir. U insonni go'zal qiladi. Sog'lom bo'lishini ta'minlaydi va yana boshqa ko'plab foydalar keltiradi. Tahorat qilish faqat Allohga qurbat hosil qilishdan oldin badanini poklashdan iborat emas, balki tahoratning o'zi Allohga qurbat hosil qilishdir. Namozdek ulug' ibodatga, Alloh taolo bilan bevosita muloqotga, munajatga jisman va ruhan poklanib, tayyorgarlik ko'rishdir. Alloh taolo Moida surasi 6-oyatida shunday marhamat qiladi; "Ey imon keltirganlar, namozga turgan vaqtingizda yuzlaringizni va qo'llaringizni chig'anoqlarigacha yuving, boshlaringizga mas'h torting va oyoqlaringizni to'piqlarigacha (yuving)".¹⁵

She'riyat sultoni Alisher Navoiy o'zlarining "Arba'iy" deb nomlangan kitoblari poklik haqidagi Payg'ambar (s.a.v.)ning hadislarini she'riy tarzda ifodalaganlar¹⁶:

*Gar hamisha tahorating bo'lsa,
Arig'ay foqa¹⁷ chirki ul suvdin.
Tohir o'l, istasang fuzun¹⁸ ro'ziy¹⁹.
Xosir²⁰ ulkim, iturdi²¹ bu so'din²².*

Alloh taolo Moida surasi 6-oyatida: "Agar junub bo'lsangiz, bas, poklaning", dedi²³.

"G'usl" so'zi lug'atda biror narsaning ustidan suv oqizmoq degan ma'noni anglatadi. Shariatda esa, Alloh taologa qurbat niyatida badanning hammasiga suv oqizishga aytiladi. G'uslning shariatimizda vojib qilinishining hikmatlari ko'p.

G'uslning farzlari bayoni²⁴

*Har kimsa bo'lsa gar donoyu oqil,
G'uslda uch narsa farzdir unga bil:
Og'izu burunni chaymoq avvalo,
So'ng barcha uzvni yuvgay jo-bajo.*

Alloh taolo: "Va junub holingizda, to g'usl qilmaguningizcha (masjidda turmang) magar yo'ldan o'tsangiz", degan²⁵.

Ichki dunyosini pok tutish.

¹⁴ Rizouddin ibn Faxriddin. Javome'ul kalim. – Toshkent.: Movarounnahr, 2004. –42 b.

¹⁵ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021. – 124 b.

¹⁶ Alisher Navoiy. Arba'in. – Toshkent: Meros, 1991. – 42 b.

¹⁷ Qashshoqlik

¹⁸ Ortiq, ziyoda

¹⁹ Rizq

²⁰ Ziyon ko'rguvchi

²¹ Yo'l yo'qotdi

²² Poklik yo'li

²³ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021. – 424 b.

²⁴ Alisher Navoiy. Arba'in. – Toshkent: Meros, 1991. – 52 b.

²⁵ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021. – 419 b.

Chun aylasang tahorati zohir,
Botiningni ham Haq qilur tohir.²⁶

Payg'ambar (s.a.v): *"Alloh taolo yoqimlidir, yoqimlilarni yaxshi ko'radi. Pokizadir pokizalarni yaxshi ko'radi. Saxiydir, saxiylikni sevadi. Jo'marddir, jo'mardlikni suyadi. Eshiklaringiz oldini ozoda tutinglar, yahudiylarga o'xshab axlat va iflos narsalarni eshiklaringiz oldida yig'ib turmanglar"*, - dedilar²⁷.

Islom dinida birinchi maqsad qalbni yomon xulqlardan poklash bo'lsa, tashqi poklikning qalb poklanishiga katta ta'siri bor. Ushbu hikmat uchun bo'lsa kerak, Rosululloh (s.a.v) eshik oldini, uy atroflarini pok tutish, axlat yig'maslik haqida nasihat qiladilar.

Rosululloh (s.a.v) zamonlarida yahudiylar ozodalikka ko'p ahamiyat bermas edilar.

Modomiki, shunday ekan, demak tariqat va haqiqat *Ichki dunyosini pok tutish* zaruriy ehtiyoji, shari'at darajasi qoniqtirmaydigan, jondan kechib ishq sharobini ichishga tayyor turgan alohida shaxslarning tanlagan yo'lidir.

Alloh taolo Hijr surasi, 29-oyatda marhamat qiladi: *"Uning ichiga o'z (dargohimdagi) ruhimdan kiritdim"*.²⁸

Shunday qilib, ruh ilohiy bo'lib, u bu dunyoga imtihon va poklanish uchun yuborilgan. Ruh Allohni qalban zikr qilish va ishq orqali poklanadi. Ruh o'zining ilohiy makoniga qaytishi uchun poklanishi zarur.

Ruh Rabboniy ish hisoblanadi. Haq taolo Isro surasi, 85-oyatdamarhamat qiladi: Alloh taolo: *"(Ey, Muhammad) Sizdan ruh haqida so'raydilar. Ayting: Ruh faqat Robbimning ishidandir. Sizlarga esa oz ilm berilgandir"*, - deb marhamat qildi.²⁹

Ham ruhan, ham jismonan poklangan, qalbini poklagan inson go'zal axloq, yuksak odob sohibiga aylanib, komil inson darajasiga yetadi³⁰.

Yuksak ongli va ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, jismonan va ruhan poklangan insonni komil inson deyish mumkin.

Poklik - iymon belgisi. Hanafiy mazhabining asoschisi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit ya'ni, Imom A'zam rohmatallohi alayhining, naqadar zukko, oliy idrok sohibi, taqvoda va halollikda komil inson bo'lganliklarini musulmon olami yaxshi biladi. U zotninig otalari Sobit haqida bir rivoyat borki, u bir necha asrdan buyon halollikning, poklikning yorqin timsoli sifatida tildan-tilga o'tib kelayotir.

Sobit tahoratni ham to'xtatib, olma oqib kelgan tomonga yuribdilar. Biroz yursa ro'paradan bir bog' chiqibdi. Bog'da suv tarab yurgan bog'bondan so'rabdilar:

-Mana shu olma sizning bog'ingizdanmi?

-Ha, mening bog'imning hosilidan.

²⁶ Alisher Navoiy. Arba'in. – Toshkent: Meros, 1991. – 48 b.

²⁷ Rizouddin ibn Faxriddin. Javome'ul kalim. – Toshkent.: Movarounnahr, 2004. – 76 b.

²⁸ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021. – 386 b.

²⁹ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021. – 512 b.

³⁰ A. Razzoqov. Tariqatga yo'llanma (Naqshbandiya ta'limoti asosidir). – Toshkent.: Movarounnahr, 2003. – 55 b.

-Unda yo olmaning haqqini oling yoki rozi bo'ling. Men olmani bexosdan yeb qo'yibman.

Bog'bon ro'parasida halol va odil, insofli yigit turganini sezib, dilida tug'ilgan niyati tiliga ko'chibdi:

-Bitta sharti bor. Agar shu shartga ko'nsangiz, men olma uchun rozi bo'laman.

-Shartingizni ayting, - debdi Sobit.

-Bir qizim bor: ikki ko'zi ko'r, tili gung, ikki oyog'i va ikki qo'li shol. O'shani nikohingizga olasiz.

Oqshom guvohlar ishtirokida nikoh o'qilib, kuyov qiz haramiga kiribdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, qarshisida bir parivash qiz ta'zim bilan salom berib turibdi.

- Ey, go'zal, siz kimsiz, - deya so'rabdi Sobit.

- Men bog'bonning qiziman, bugun sizga nikohlashdi-ku,- debdi parivash.

Voqea sababini bog'bondan so'rabdilar. U "sizni aldamadi, ko'r degani qizim esini taniganidan buyon – harom ishlarni ko'rmadi, gung, soqov degani – hanuzgacha yomon va beodob so'zlarni tilga olmadi, ikki qo'li shol degani – o'zgalar haqqiga qo'l uzatmadi, ikki oyog'ining sholligi – ostona hatlab gunoh ishlarga qadam qo'ymaganidir", - debdi. Sobit bu nogahoniy baxtdan xursand bo'lib, o'ziga bunday halol juftni ro'para qilgani uchun Alloh taolaga behad shukronalar aytibdi. Ana shu ikki pokiza va halol insonlardan Imom A'zam (r.a.)dek buyuk zot dunyoga kelgan ekanlar³¹.

Bu rivoyatdan bir necha hikmatlarni olish mumkin.

Eng avvalo, Islom dini kishilarning halol va pokiza bo'lishlarini Islomiy hayot tarzining eng zarruriy sharti, deb qo'ygan.

Ikkinchidan, agar kishilar halol va pok bo'lmasalar, haromdan hazar qilmasalar, odamzod nasli buzilib, ular yashab turgan jamiyat inqirozga uchraydi.

Uchinchidan, farzandining qanday inson bo'lib tug'ilishi va kamol topishi eng avvalo ota-onaning halolligiga va bolani halol topilgan taom bilan rizqlantirishiga bog'liq.

XULOSA

Xulosa qilib aytamizki, hozirgi davr tili bilan aytganda, Qur'oni karim ikki tomoni tig'lik qurolga o'xshab ketadi. Kezi kelganda foyda uchun ham, zarar uchun ham guvohlik berar ekan. Qur'oni Karimni o'z foydasi yoki zarariga ishlatish bandaning o'ziga bog'liq. Alloh taolo bandani yaratib, rizqu ro'z berib, aql berib, uning ustiga lutfu-marhamat ko'rsatib, ikki dunyo saodati yo'lini topishi uchun ko'rsatmalar dasturi sifatida Qur'oni karimni berib, uni guvoh ham qilib qo'yibdi. Agar banda ilohiy dastur sifatida o'ziga berilgan Qur'oni karimni o'qib, unga amal qilib yashasa, qiyomat kuni Qur'on uning foydasiga guvohlik beradi. Ammo banda nobakorlik qilsa, o'ziga berilgan ilohiy dasturni o'qimasa yoki amal qilmasa, Qur'oni karim qiyomat kuni uning zarariga guvohlik beradi. Oqibatda o'sha bandaning ishi rasvo bo'ladi.

³¹ N.Komilov. Tasavvuf. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar / to'plam /. – Toshkent.: O'zbekiston, 1994. – 22 b.

Alloh taolo uni qadrlab, ikrom qilib, hayotida amal qilishi lozim bo'lgan, ikki dunyo saodatiga erishtiradigan dasturni taqdim qilib qo'yibdi. Bu o'zini bilgan banda uchun cheksiz ilohiy lutfu-karam va mehribonlikdir.

Shundan ko'rinib turibdiki, Qur'oni karim bandalarni razolatdan hidoyatga, najosatdan poklikka buyuradi. Poklik esa tahorat bilan bo'ladi.

Tahorat qilganda to'kiladigan gunohlar Allohning haqqiga taalluqli kichik gunohlar ekanligini unutmaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021. – 624 b.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – Toshkent: Hilol nashr, 2009. – 162 b.
3. Rizouddin ibn Faxriddin. Javome'ul kalim. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. –158 b.
4. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 447 b.
5. G'. G'ofurov. Sharq javohirlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. –184 b.
6. Ahmad Bobomurodov. Komil insonlar yo'lidan. – Toshkent: Movarounnahr, 2003. – 153 b.
7. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichinda. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 212 b.
- A. Razzoqov. Tariqatga yo'llanma (Naqshbandiya ta'limoti asosidir). – Toshkent: Movarounnahr, 2003. – 157 b.
8. N.Komilov. Tasavvuf. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar / to'plam /. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 234 b.
9. Alisher Navoiy. Arba'in. – Toshkent: Meros, 1991. – 142 b.